

Mustaqil auditorlik tashkilotlariga

AUDITORLIK TASHKILOTLARI DIQQATIGA!

“Dori-Darmon” aksiyadorlik kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ko‘rsatmasiga muvofiq holda, mustaqil auditorlik tashkilotini tanlash bo‘yicha TANLOV e‘lon qiladi.

Tanlov o‘tkazish zaruriyati O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan o‘tkazilgan audit natijalari asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida, jumladan:

- Kompaniyaning 2023-yil uchun xarajatlar va sof foyda hisobini yuritilishini tekshirish va xulosa berish.
- Shuningdek, kompaniya tomonidan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish majburiy yoki majburiy emasligi va uning sof foydaga ta‘sirini o‘rganish.

Tanlovda ishtirok etadigan auditorlik tashkilotlari:

- o‘z faoliyatini “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq olib borishi;

- auditorlik faoliyatini kamida 5 yil davomida amalga oshirib kelishi;

- tashkilot shtatidagi xodimlar tarkibida asosiy ish joyi hisoblangan 5 yildan ortiq davrda Moliya vazirligi tomonidan umumiy audit sohasida berilgan malaka sertifikatlariga ega hamda 5 yildan ortiq ish tajribasiga ega bo‘lgan kamida 4 nafar auditorlar, shuningdek kamida 2ta BHXSga muvofiq xalqaro sertifikatlariga ega auditorlar mavjudligi;

- kamida 3 000 000 000 (bir milliard) so‘m miqdorida auditorning kasbiy javobgarligi sug‘urtasining mavjudligi;

- oxirgi 3-yil davomida BHXS sohasida 5 ta muvafaqqiyatli loyihalar (moliyaviy hisobotlarni BHMSdan BHXSga o‘tkazish, BHXSga muvofiq moliyaviy hisobot auditi) amalga oshirilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjudligi;

- oxirgi 3 yil davomida (2022-2025) O‘zbekiston Respublikasi auditorlik tashkilotlarining reytingining birinchi beshligidan past bo‘lmagan o‘rin egallashi.

Taqdim etilishi lozim bo‘lgan hujjatlar:

- Ishtirokchining tanlovda ishtirok etish bo‘yicha taklifi va auditorlik tekshiruv o‘tkazishining dastlabki qiymati;

- Auditorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning nusxasi;

- Auditorlik kompaniyasi to‘g‘risida ma‘lumot;

- Auditorlik kompaniyaning eng yirik mijozlari ro‘yhati va sohada tegishli ish tajribasi;

- Auditorning malaka sertifikatlari va boshqa xalqaro sertifikatlar nusxalari;

- Sug‘urta polisining nusxasi;

Tanlovda qatnashish uchun tijorat takliflari yopiq muhrlangan konvertda 20.10.2025 yil soat 17:00 gacha qabul qilinadi.

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Chorsu maydoni, 21-uy, “Dori-Darmon” AK ma‘muriy binosi.

Tanlov bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumotlar uchun:

Telefon: +998 71 281 43 06

www.doridarmon.uz

Belgilangan muddatlardan keyin yuborilgan tijorat takliflari tanlovda ishtirok etmaydi.

“Dori-Darmon” AK ma‘muriyati

Kompaniya Boshqaruv raisi



M.M.Dusmurov